O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrasi

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA'MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel



Samarqand - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrasi

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel



Samarqand - 2026

UO'K: 336:364.2:331.5
K 25
KBK: 65.262(5Uzb)

Bank-moliya tizimi orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligni ta'minlash: muammo va yechimlar*: // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2026-yil 2-3-aprel. Samarqand, SamISI, 2026. – 830 bet.*

Bosh muharrir:
Karimova A.M. — i.f.d., prof., "Bank ishi" kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis institute.

Tahrirchi:
Tursunov F.M. — "Bank ishi" kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

To'plamga iqtisodchi olimlar, doktorantlar, magistrlar, talabalarning kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini taminlashda tijorat banklarining o'rni, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashda tijorat banklarini rolini oshirish, ta'lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish, raqamli bank xizmatlari va fintex yechimlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish, xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlar orqali kambag'allikni qisqartirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar kiritilgan.

To'plam professor-o'qituvchilar, katta ilmiy xodimlar, magistrlar, talabalar va amaliyot xodimlari uchun foydalanishga mo'ljallangan.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

Po'latov M.E.	i.f.d., professor, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
Karimova A.M.	i.f.d., professor, "Bank ishi" kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Niyozov Z.D.	i.f.n., "Bank ishi" kafedrasi professori v.b., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Tursunov F.M.	"Bank ishi" kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Maqolalarda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy qo'mita qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-225-66-6

©Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.
© "STEP-SEL" MChJ nashriyoti, 2026.

tizimining savdoni rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirish uchun, moliyaviy xizmatlarni yanada takomillashtirish, investorlar bilan aloqalarni kuchaytirish va xalqaro standartlarga moslashish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Gulomov S.K. Xalqaro savdo va bank tizimi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021. — 250 b.
2. Khamraev N.G. Bank faoliyati va iqtisodiy o'sish. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — 300 b.
3. Abdullayev A.A. Savdo va moliyalashtirish: muammolar va yechimlar. — Toshkent: Fan, 2019. — 220 b.
4. Jumaniyazov Z.M. Xalqaro valyuta operatsiyalari. — Toshkent: O'zbekiston, 2022. — 180 b.
5. Tursunov D.T. Iqtisodiy islohotlar va bank tizimi. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — 230 b.
6. Murodov F.H. Savdo moliyalashtirishining asosiy tamoyillari. — Toshkent: Fan, 2021. — 200 b.
7. Yusupov R.A. Banklar va investitsiyalar. — Toshkent: O'zbekiston, 2018. — 210 b.
8. Akramov J.R. Xalqaro moliyaviy bozorlar. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. — 260 b.
9. Siddiqov O.Sh. Bank tizimining rivojlanishi. — Toshkent: Fan, 2019. — 240 b.
10. Sattorov A.B. Xalqaro savdoda banklar roli. — Toshkent: O'zbekiston, 2022. — 190 b.
11. Dzhuraev A.S. Moliyalashtirish va savdo. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. — 225 b.
12. Khalilov M.A. Bank va savdo aloqalari. — Toshkent: Fan, 2021. — 270 b.

TURIZM IQTISODIYOTINI TAHLIL QILISHDA FOYDALANILADIGAN AYRIM MATEMATIK MODELLAR VA ULARNING TAVSIFI

“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Turizm” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
Janzakov Bekzot Kulmamat o’g’li

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Gompertz modeli yordamida turizm sohasidagi o‘sish jarayonlarini modellashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Monte Karlo simulyatsiyasi orqali murakkab tizimlarda turist xatti-harakati va xarajatlarini prognozlashning afzalliklari asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: Gomperz modeli, Monte Karlo simulyatsiyasi, logistik model, turizm, xizmat ko’rsatish

Gompertz modeli o'sish ma'lumotlarini moslashtirish uchun eng keng

qo‘llaniladigan sigmoid modellaridan biridir[217]. U logistik modelidan (Verhulst modeli deb ham ataladi) keyin ikkinchi eng ko'p ishlatiladigan modeldir.

Tadqiqotchilar uni **biologik va iqtisodiy tizimlardagi o‘sish jarayonlarini tavsiflashda keng qo‘llashadi:** masalan, qushlar, baliqlar va boshqa hayvonlar populyatsiyasining o‘sishi, o‘simliklar va bakteriyalarning o‘sishi, shuningdek, turizm yoki mahsuldorlik kabi inson faoliyati bilan bog‘liq o‘sish ko‘rsatkichlariga ham moslashtirish mumkin.

Gompertz modeli quyidagi differensial tenglama bilan ifodalanadi:

$$\dot{T}(t) = a * T(t) * (lnK - lnT(t)) \qquad (5)$$

Gompertz modelining yechimi (4) quyidagicha beriladi:

$$T(t) = K * e^{-e^{-a(t-t_0)}}, a > 0 \qquad (6),$$

bu yerda K — sig'im. Logistika va Gompertz funksiyalari uchta parametr — K, a, t_0 — hisoblanishi orqali aniqlanadi. a parametri sayyohlar sonining kengayish tezligidir. t_0 parametri sayyohlar soni maksimal darajaning $1/e \approx 36.8\%$ ulushiga erishadigan vaqtni bildiradi. Ikkala funksiyaning diapazoni ikkita asimptota — $T(t) = 0$ va $T(t) = K$ — o'rtasida joylashgan.

Turizm sohasida xizmat ko‘rsatish jarayoni turistik xizmat ko‘rsatuvchi (subyekt) va turist (obyekt) o‘rtasidagi munosabatlarga bevosita bog‘liqdir. Turistlarning xatti-harakatlarini modellashtirish mikro darajada, korxonaning esa makro darajada potensial daromadlarini hamda rentabelligini baholash imkoniyatini beradi.

Murakkab tizimlardagi jarayonlarni o‘rganishda matematik simulyatsiya juda qo‘l keladi. Simulyatsiya so’zi bu yerda ma’lum hodisani bir yoki bir nechta sun’iy (boshqariladigan) tajriba yordamida modellashtirish ma’nosida kelgan. Simulyatsiyaning bir ko’rinishi sifatida takrorlanuvchi tasodifiy tanlanmalarga asoslangan Monte Karlo usullarini keltirib o’tish mumkin. Monte Karlo usuli Stanislav Ulam tomonidan 1940-yillarda atom bombasini yaratish loyihasi doirasida ishlab chiqilgan[218]. Bunda bu usul dastlab uran neytronlarining tasodifiy diffuziyasini modellashtirishda foydalanilgan.

Turizm sohasida, Sanovichning fikriga ko‘ra, to‘rtta asosiy xizmat ko’rsatish muhim hisoblanadi: ovqatlanish, dam olish, tashrif buyurish va xarid qilish[219]. Uning ta’kidlashicha, har qanday turistik sayohat aynan mana shu xizmatlardan tashkil topadi va shu xizmatlarning sifatiga qarab, turistlar o’ziga turli maqsadlar uchun destinatsiya tanlashi mumkin. Turistlarning xarajatlarini to’gri prognoz qila olish va o’zaro bog’liqligini aniqlash, ma’lum darajada turistik destinatsiyaga raqobat ustunligini taqdim etishi mumkin. Chunki aynan bozorning turli holatlariga tayyor bo’lgan destinatsiyalar har qanday yomon sharoitda ham minimal zarar bilan vaziyatdan chiqib ketishi mumkin bo’ladi. Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqotda turistlarning potensial xarajatlari: transport, oziq ovqat, joylashtirish, malakali gid xizmati va boshqa qo’shimcha xizmatlarga

[217] Gompertz, Benjamin (1825). "On the nature of the function expressive of the law of human mortality, and on a new mode of determining the value of life contingencies". *Philosophical Transactions of the Royal Society of London*. **115**: 513–585

[218] https://en.wikipedia.org/wiki/Monte_Carlo_method

[219] SANOVICZ, E. (2011) Turismo em Cidades. São Paulo: Campus.

xarajatlardan iborat deb hisoblandi.

Hozirgi kunda turizm sohasini tadqiq qilishda turli ekonometrik usullar keng qo'llaniladi. Masalan, dinamik qatorlarni prognoz qilishda ARIMA, VAR kabi modellar keng qo'llaniladi[220]. Toifali (sifat bo'yicha) yoki nominal ma'lumotlarni tahlil qilishda esa probit va logit kabi modellar ishlatiladi[221]. Lekin bu usullar murakkab tizimlar holati o'zgarishini baholashda qo'l kelmaydi.

Monte Karlo usullarining boshqa ekonometrik usullardan afzalligi shundaki, bunda o'zgaruvchilarning taqsimoti xususiyatlari unchalik ahamiyatga ega emas va unda ko'plab hodisalarni birdaniga sodir bo'ladi deb qabul qilish mumkin[222]. Ayniqsa, iqtisodiyotda investitsiya sarflarini modellashtirishda sof joriy qiymat usuli, Pert taqsimoti, Bernulli taqsimoti kabi usullar keng qo'llaniladi[223].

Adabiyotlar

Gompertz, Benjamin (1825). "On the nature of the function expressive of the law of human mortality, and on a new mode of determining the value of life contingencies". *Philosophical Transactions of the Royal Society of London*. **115**: 513–585

https://en.wikipedia.org/wiki/Monte_Carlo_method

[1] SANOVICZ, E. (2011) Turismo em Cidades. São Paulo: Campus.

Safarov B, Al-Smadi HM, Buzrukova M, Janzakov B, Ilieş A, Grama V, Ilieș DC, Csobán Vargáné K, Dávid LD. Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. *Sustainability*. 2022; 14(13):7762. https://doi.org/10.3390/su14137762

[1] Safarov B., Mirzaev K., Janzakov B., Ruzibayev O. African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure, 2022, Vol 11, 6, pp. 2052-2062.

[1] Gilbert, E. Investment Basics XLIX. An Introduction to Real Options,"Investment 8 Analysts Journal, vol. 60, 2005, pp. 49-52.

[1] Cox, J., S. Ross, and M. Rubinstein. Option pricing: a simplified approach. Journal of 6 Financial Economics, vol. 7, no. 3, 1979, pp. 229-263.

[220] Safarov B, Al-Smadi HM, Buzrukova M, Janzakov B, Ilieș A, Grama V, Ilieș DC, Csobán Vargáné K, Dávid LD. Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. *Sustainability*. 2022; 14(13):7762. https://doi.org/10.3390/su14137762

[221] Safarov B., Mirzaev K., Janzakov B., Ruzibayev O. African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure, 2022, Vol 11, 6, pp. 2052-2062.

[222] Gilbert, E. Investment Basics XLIX. An Introduction to Real Options," Investment 8 Analysts Journal, vol. 60, 2005, pp. 49-52.

[223] Cox, J., S. Ross, and M. Rubinstein. Option pricing: a simplified approach. Journal of 6 Financial Economics, vol. 7, no. 3, 1979, pp. 229-263.

DIVIDENDLAR ORQALI AHOLI DAROMADLILIGINI OSHIRISH MASALALARI

Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, PhD,
+998946210977

Annotatsiya: *Dividendlar orqali aholi daromadliligini oshirish masalalarini o‘rganishda hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar tarkibi va unda jismoniy shaxslar ulushi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *dividend, dividend to‘lovlari, aksiya, jismoniy shaxslar, aholi, aholi daromadliligi.*

Dividendlar orqali aholi daromadliligini oshirish kapital bozorlarini rivojlantirish va aholining moliyaviy farovonligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Aholi tomonidan aksiyalarga investitsiya kiritish va dividend daromadlarini olish orqali passiv daromad manbalari shakllanib, bu esa ularning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Dividend siyosatining barqarorligi investorlar ishonchini mustahkamlab, qimmatli qog‘ozlar bozorida uzoq muddatli investitsiyalar hajmini kengaytirishga xizmat qiladi. Dividend to‘lovlari orqali aholining real daromadlari oshishi iste’mol darajasining ko‘tarilishiga olib keladi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Bundan tashqari dividendlar korporativ boshqaruv sifatining oshishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kompaniyalarni yanada shaffof va samarali faoliyat yuritishga undaydi. Aholining keng qatlamlarini aksiyadorlik faoliyatiga jalb qilish orqali moliyaviy savodxonlik darajasi oshadi va bu kapital bozorining institutsional rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, dividendlar orqali daromadlilikni oshirish investitsion madaniyatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, muntazam dividend to‘lovlari aholining jamg‘arma qilishga bo‘lgan rag‘batini kuchaytirib, ichki investitsiya resurslarining ko‘payishiga olib keladi. Dividend daromadlari orqali ijtimoiy tengsizlikni yumshatish imkoniyati ham mavjud bo‘lib, bu moliyaviy inklyuziya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil yanvar–iyun oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi va uning real o‘sish sur’atlari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo‘lib, bu hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasining turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Respublika bo‘yicha o‘rtacha daromad 13 683,7 ming so‘mni tashkil etgani holda uning 107,4 foizlik real o‘sish sur’ati iqtisodiy faollikning ijobiy dinamikasini aks ettiradi. Ayniqsa, Toshkent shahri 35 079,6 ming so‘m ko‘rsatkich bilan yetakchi o‘rinni egallab, yuqori darajadagi urbanizatsiya va xizmatlar sektorining rivojlanganligini namoyon etadi. Navoiy viloyatining 20 048,7 ming so‘mlik daromad hajmi sanoat va resurs salohiyatining yuqoriligini tasdiqlaydi, biroq Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Namangan viloyatida daromad ko‘rsatkichlarining nisbatan

pastligi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mavjudligini anglatadi.

1-jadval

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (2025-yil yanvar-iyun)[224]

№	Hudud nomi	Hajmi (ming so‘m)	Real o‘sish sur’ati (%)
	O‘zbekiston Respublikasi	13 683,7	107,4
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	9 198,0	102,0
2	Andijon	11 983,1	102,5
3	Buxoro	15 883,9	106,1
4	Jizzax	10 220,2	105,9
5	Qashqadaryo	10 563,3	105,5
6	Navoiy	20 048,7	105,9
7	Namangan	9 457,0	103,8
8	Samarqand	11 131,3	104,9
9	Surxondaryo	10 396,4	104,5
10	Sirdaryo	10 451,8	104,5
11	Toshkent viloyati	13 740,5	103,9
12	Farg‘ona	11 427,2	115,5
13	Xorazm	13 454,6	107,3
14	Toshkent shahri	35 079,6	112,8

1-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yil mart holatiga aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar tarkibi yuridik va jismoniy shaxslar kesimida shakllanib, ularning umumiy soni 1 030 105 nafarni tashkil etgani kapital bozorining kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Yuridik shaxslar sonining 65 446 nafarni tashkil etishi korporativ investorlar ulushining muhim ekanligini anglatadi, ayni paytda, jismoniy shaxslar sonining 964 659 nafarga yetgan.



1-rasm. 2026-yil mart holatiga aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar tarkibi[225]

Dividendlar orqali aholi daromadliligini oshirish masalasi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va kapital bozorining chuqurlashuviga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida qaralib, bunda birinchi navbatda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy natijalari va dividend siyosati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash zarur hisoblanadi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularni qimmatli qog‘ozlar bozoriga jalb etish, dividend

[224] https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/62858-aholining-umumiy-daromadlari-2025-yil-yanvar-iyun-1 - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti ma’lumotlari

[225] https://uzcsd.uz/issuersList - Qimmatli qog‘ozlar Markaziy depozitariysi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

daromadlarining barqaror manbaga aylanishida muhim rol o‘ynaydi, chunki yetarli bilimga ega bo‘lmagan investorlar uzoq muddatli investitsiya imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydi. Bundan tashqari, kompaniyalar tomonidan ochiq va shaffof dividend siyosatini yuritish, investorlar ishonchini mustahkamlab, aksiyalarni sotib olishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi hamda bu orqali aholining passiv daromad manbalari kengayadi.Davlat tomonidan soliq imtiyozlari va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning joriy etilishi dividend daromadlarini yanada jozibador qilib, aholining kapital bozorida faol ishtirok etishiga turtki beradi, ayniqsa uzoq muddatli investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, fond bozorida likvidlik darajasining yuqori bo‘lishi dividend siyosatining samaradorligini ta’minlab, investorlar uchun aksiyalarni erkin sotish va sotib olish imkonini kengaytiradi, bu esa daromadlilikni oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, korporativ boshqaruv standartlarini takomillashtirish orqali kompaniyalar foydasini samarali taqsimlash imkoniyati yaratiladi, natijada dividend to‘lovlari hajmi va barqarorligi ortadi.

Yana bir muhim jihat sifatida aholining kichik jamg‘armalarini kollektiv investitsiya vositalari orqali birlashtirish, masalan, investitsiya fondlari orqali, dividend daromadlarini yanada barqaror va diversifikatsiyalangan shaklda olish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va inflyatsiya darajasini nazorat ostida ushlab turish dividend daromadlarining real qiymatini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi, aks holda nominal daromadlar real daromadlilikni aks ettirmasligi mumkin. Bundan tashqari, texnologik platformalar va raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi aksiyalarga investitsiya qilish jarayonini soddalashtirib, keng aholi qatlamlari uchun dividend daromadlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan reinvestitsiya va dividend to‘lovlari o‘rtasida optimal nisbatni saqlash, kompaniya uzoq muddatli o‘sishini ta’minlash bilan birga investorlar manfaatlarini ham himoya qiladi. Bundan tashqari, risklarni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish orqali investorlar uchun kutilmagan yo‘qotishlarning oldini olish mumkin bo‘lib, bu dividend daromadlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, dividendlar orqali aholi daromadliligini oshirish masalasi kompleks va tizimli yondashuvni talab qiluvchi jarayon bo‘lib, bunda kapital bozorining rivojlanganligi, korporativ boshqaruv sifati, shaffof dividend siyosati hamda aholining moliyaviy savodxonligi o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Davlat tomonidan yaratiladigan institutsional va soliq rag‘batlari investorlar faolligini oshirib, dividend daromadlarini barqaror va jozibador manbaga aylantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, moliyaviy texnologiyalar va kollektiv investitsiya mexanizmlarining kengayishi aholi qatlamlarini kapital bozoriga jalb etib, ularning passiv daromad olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/62858-aholining-umumiy-daromadlari-2025-yil-yanvar-iyun-1 -
2. Qimmatli qog‘ozlar Markaziy depozitariysi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan. https://uzcsd.uz/issuersList.

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON AXBOROTLARNI MUHOFAZA QILISHNI TASHKIL ETISH

Xolikulov O‘ktam Abdumo‘minovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Bank ishi kafedrasi o‘qituvchisi
Oltinboyev Azizbek
Samarqand iqtisodiyot va servis institute talabasi
Samadov Jasur
Samarqand iqtisodiyot va servis institute talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida elektron axborotlarni muhofaza qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va texnik mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada axborot xavfsizligining asosiy tamoyillari, davlat va xususiy sektor uchun belgilangan talablar, kriptografik himoya vositalari, kiberhujumlarga qarshi kurash choralari hamda axborot xavfsizligini ta'minlashda xalqaro hamkorlik masalalari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar*: axborot xavfsizligi, elektron axborot, kiberhujum, kriptografiya, ma'lumotlar himoyasi, ICTD, DLP tizimi, axborot muhofazasi.*

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyot, davlet boshqaruvi va fuqarolar hayotiga chuqur kirib bormoqda. Hukumat xizmatlari, bank-moliya operatsiyalari, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlari tobora ko'proq elektron shaklga o'tmoqda. Bunday sharoitda elektron axborotlarni muhofaza qilish masalasi davlat xavfsizligining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va "elektron hukumat" tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat xizmatlarining 80 foizdan ortig'i raqamli formatga o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bu esa o'z navbatida milliy axborot resurslarini himoya qilishni, kiberhujumlarga chidamlilikni va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'ymoqda. Maqolaning asosiy maqsadi — O'zbekistonda elektron axborotlarni muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini, texnik vositalarini va amaliyotdagi muammolarini kompleks tahlil qilishdan iborat. Quyidagilar axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- Maxfiylik - axborotga faqat vakolatli shaxslar kirishi ta'minlanadi.
- Yaxlitlik - axborot ruxsatsiz o'zgartirishlardan himoyalangan bo'ladi.

• Mavjudlik - vakolatli foydalanuvchilar axborotga istalgan vaqt kira olishi kafolatlanadi.

• Autentifikatsiya - foydalanuvchi yoki tizimning haqiqiyligi tasdiqlanadi.

Huquqiy-me'yoriy asoslar. O'zbekistonda elektron axborotlarni muhofaza qilishning huquqiy bazasi bir qator asosiy qonunchilik hujjatlaridan iborat. 2003-yilda qabul qilingan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun axborot munosabatlarini tartibga solishning huquqiy poydevorini yaratdi. 2007-yilda "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, elektron raqamli imzo va kriptografik himoyaning huquqiy maqomi belgilandi. 2022-yilda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun esa sohadagi eng muhim me'yoriy hujjat bo'lib, u quyidagilarni belgilab berdi:

• kiberxavfsizlik sohasidagi davlat boshqaruvi tizimi;

• kritik axborot infratuzilmasi ob'ektlarini himoya qilish talablari;

• kiberhujumlarga javob berish va ularning oldini olish mexanizmlari;

• axborot xavfsizligi monitoringini tashkil etish tartibi.

Bundan tashqari, "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (2019) fuqarolar shaxsiy ma'lumotlarining himoyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi va ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash hamda uzatishga nisbatan aniq talablar o'rnatadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy tuzilmasi. O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida bir nechta davlat tuzilmalari mas'ul hisoblanadi. Ularning funksiyalari va vakolatlari quyidagi jadvalda keltirilgan: Texnik himoya vositalari va mexanizmlari. Elektron axborotlarni texnik jihatdan muhofaza qilish uchun O'zbekistonda quyidagi usul va vositalardan foydalaniladi. DLP tizimlari. Ma'lumotlarning tashqariga chiqib ketishining oldini olish (Data Loss Prevention) tizimlari yirik davlat tuzilmalari va tijorat banklarida joriy etilgan. Bu tizimlar korporativ tarmoqlarda ma'lumotlar harakatini nazorat qilish, shubhali operatsiyalarni bloklash va hisobotlarni avtomatik tarzda shakllantirish imkonini beradi. SIEM platformalari. Xavfsizlik hodisalari va voqealar menejmentini boshqarish (Security Information and Event Management) tizimlari axborot xavfsizligi monitoringini real vaqt rejimida amalga oshirish uchun qo'llaniladi. CERT-UZ milliy miqyosda bunday platformadan foydalanib, kiberhujumlarni aniqlash va ularning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Mavjud muammolar va chaqiriqlar. O'zbekistonda axborot xavfsizligi sohasida bir qator dolzarb muammolar mavjud: Malakali kadrlar etishmasligi: Kiberxavfsizlik mutaxassislariga bo'lgan talab taklif bilan qoplanmaydi. Universitetlarda kiberxavfsizlik yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlari nisbatan yangi bo'lib, ularning sifati xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaydi. Eskirgan infratuzilma**:** Ko'plab davlat tashkilotlari hali ham eskirgan dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanmoqda. Bu esa ularni zaifliklardan foydalanuvchi kiberhujumlar uchun nishonga aylantiradi. Past xabardorlik: Oddiy foydalanuvchilar orasida kiberxavfsizlik madaniyati va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha bilimlar hali ham etarli darajada shakllanmagan. Fishing hujumlar va ijtimoiy muhandislik usullari asosidagi kiberjinoyatlar ko'payib

bormoqda. Kiberhujumlar statistikasi: CERT-UZ ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda Respublika bo'yicha qayd etilgan kiberhujumlar soni yildan yilga oshib bormoqda. 2023-yilda jami 3 000 dan ortiq kiberhujum holati qayd qilingan bo'lib, ularning ko'pchiligi davlat tashkilotlari va moliya sektori ob'ektlariga qaratilgan edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda elektron axborotlarni muhofaza qilish tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashdi. “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi, CERT-UZ faoliyatining kengaytirilishi va raqamli transformatsiya doirasidagi davlat dasturlari axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuv shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, malakali kadrlar tayyorlash, eskirgan infratuzilmani yangilash va kiberxavfsizlik madaniyatini ommalashtirish yo'nalishida qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish talab etiladi. Xalqaro tashkilotlar – ITU, ISO/IEC va ENISA bilan hamkorlikni kengaytirish ham mamlakat axborot xavfsizligi salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iborat: kiberxavfsizlik bo'yicha milliy strategiyani yangilash; sun'iy intellekt va big data asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish; xususiy sektor va davlat o'rtasida axborot xavfsizligi sohasida hamkorlikni mustahkamlash; hamda GDPR kabi xalqaro standartlarga muvofiq ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining “Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonuni.
4. ISO/IEC 27001:2022. Standarts.
5. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA).

TURISTIK DESTINATSIYALARNING EKOLOGIK SIG’IMIDAN FOYDALANISHNI MATEMATIK MODELI

“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Turizm” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
Janzakov Bekzot Kulmamat o’g’li

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda rekreatsion ekologiyada “maskan sig‘imi” tushunchasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Unda tashrif buyuruvchilar sonining ekologik va ijtimoiy jihatdan maqbul chegaralarini aniqlash muammosi zamonaviy yondashuvlar asosida yoritilgan. Xususan, LAC (Maqbul o‘zgarish limitlari) va VERP (Tashrif buyuruvchi tajribasi va resurs himoyasi) tizimlari orqali sig‘imni oddiy miqdoriy ko‘rsatkich emas, balki moslashuvchan boshqaruv mexanizmi sifatida baholash zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqotda ekologik sifat darajasining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ifodalovchi matematik model keltirilib, unda tabiiy tiklanish tezligi va tashrif buyuruvchilar

ta’siri o‘rtasidagi muvozanat muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, ekologik ko‘rsatkichlarni monitoring qilish, tashrif oqimini boshqarish, infratuzilmani takomillashtirish va ekologik ta’limni rivojlantirish orqali barqaror turizmni ta’minlash yo‘llari taklif etiladi. Natijada, turizmni rivojlantirishda tabiatning tiklanish imkoniyatlarini inobatga olgan holda kompleks va adaptiv boshqaruv yondashuvi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlanadi.

Kalit so’zlar: turistik maskan, ekologiya, matematik model, LAC, VERP.

Rekreatsion ekologiya sohasida “maskan sig’imi” – ya’ni tashrif buyuruchilar sonining ekologik va ijtimoiy jihatdan maqbul chegarasini aniqlash nazariyasi uzoq yillik ilmiy izlanishlarning mahsulidir. Dastlab bu tushuncha “necha kishi kelsa, tabiatga zarar yetmaydi?” degan savol atrofida shakllangan. Robert Manning[226] o‘z tadqiqotlarida Milliy bog‘lar va qo‘riqlanadigan hududlarda tashrif buyuruchi oqimini cheklash masalasi, ularning tajribasi va resurslar sifatini muvozanatda ushlab turish zaruratini tahlil qilgan. Ammo vaqt o‘tishi bilan olimlar bitta raqam bilan “sig‘im”ni ifodalash amalda samarasizligini anglashdi. Chunki tabiiy ekotizimlar, tashrif buyuruchi xulq-atvori, ob-havo va infratuzilma omillari joydan joyga farq qiladi.

Stankey va boshqalar[227] (1985) tomonidan ishlab chiqilgan LAC – Limits of Acceptable Change (Maqbul o’zgarish limitlari) tizimi aynan shuni ifodalaydi. Bu yondashuvda ekologik o‘zgarishlar muqarrar deb qabul qilinadi, biroq ular oldindan rahbarlar tomonidan “qabul qilinadigan chegaralar” bilan boshqariladi. LAC bosqichlari — hudud maqsadini aniqlash, muhim ekologik va ijtimoiy ko’rsatkichlarni tanlash, ular uchun standart (me’yor) belgilash, doimiy monitoring yuritish va natijalarga qarab boshqaruv choralarini o‘zgartirishdan iborat.

Keyinchalik AQSh Milliy bog‘lar xizmati ushbu konsepsiyani kengaytirib, VERP – Visitor Experience and Resource Protection (Tashrif buyuruvchi tajribasi va resurs himoyasi) dasturini ishlab chiqdi[228]. VERP LAC’ning ilmiy tamoyillarini amaliy rejalashtirish tizimiga aylantirdi: ya’ni bog‘ maqsadlari, ko’rsatkichlar, ularning standartlari, monitoring va boshqaruv choralarini yagona doirada uyg‘unlashtirdi. Natijada, “sig‘im” masalasi oddiy raqamli limitdan chiqib, moslashuvchan boshqaruv tizimiga aylandi.

Zamonaviy adabiyotlarda bu yondashuv “ko’rsatkich–standart” tamoyiliga asoslanadi. Marion (2016)[229]ning “Rekreatsion ekologiya” bo‘yicha keng tahliliga ko‘ra, zararning darajasi faqat tashrif buyuruchilar soniga emas, balki tuproqning sezgirligi, o‘simlik qoplamasining turi, yo‘laklar dizayni va

[226] Robert E. Manning (2007) How Much is Too Much? Carrying Capacity of National Parks and Protected Areas. Monitoring and Management of Visitor Flows in Recreational and Protected Areas Conference Proceedings ed by A. Arnberger, C. Brandenburg, A. Muhar, pages 306-313

[227] Stankey, G.H. va boshq. (1985). *The Limits of Acceptable Change (LAC) System for Wilderness Planning*. (LAC tizimi).

[228] NPS (1997 va keyin). *VERP Handbook* – tashrif boshqaruvi, ko’rsatkich-standartlar. https://npshistory.com/publications/social-science/verp-handbook.pdf

[229] Jeffrey L. Marion, A Review and Synthesis of Recreation Ecology Research Supporting Carrying Capacity and Visitor Use Management Decisionmaking, *Journal of Forestry*, Volume 114, Issue 3, 1 May 2016, Pages 339–351, https://doi.org/10.5849/jof.15-062

tashrif buyuruvchining xulqiga ham bog‘liq. Shu sababli, har bir joyda ekologik ko’rsatkichlar — masalan, o‘simlik qoplanishi foizi, tuproq siqilishi indeksi yoki yo‘lak kengayishi sm – tanlanadi va ular uchun qabul qilinadigan minimal sifat darajasi belgilanadi.

Ajuhari va boshqalar[230] (2023) tomonidan olib borilgan so‘nggi tizimli sharhda turizm va rekreatsiyada sig‘imni baholash uchun turli yondashuvlar — bio sig’im tahlili, ijtimoiy sig‘im, matematik modellashtirish va sezgirlik tahlillari — qo‘llanayotganligi ta’kidlanadi. Ularning xulosasiga ko‘ra, ko’rsatkich–standart tizimi bilan birgalikda adaptiv boshqaruv mexanizmini joriy etish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Mazkur nazariyani matematik tarzda ifodalash uchun ko‘p hollarda quyidagi oddiy differensial tenglama ishlatiladi:

$$Q_t' = rQ_t(1 - Q_t) - \gamma Tour_t Q_t$$

Bu yerda:

Q_t – ekologik sifat darajasi (masalan, o‘simlik qoplanish foizi, tuproq holati yoki suv tiniqligi), foizlarda o’lchanadi

$Q_t' - Q_t$ ning vaqt bo‘yicha o‘zgarish tezligi (ya’ni, *hosila*). Bu qiymat musbat bo‘lsa — sifat yaxshilanmoqda (ekotizim tiklanmoqda), manfiy bo‘lsa — sifat yomonlashmoqda (zarar ortmoqda).

$rQ_t(1 - Q_t)$ – tabiiy tiklanish tezligi, *logistik o’sish* shaklida keltirilgan. Agar Q_t juda past bo‘lsa, o‘sish sekin, agar Q_t o‘rtacha bo‘lsa, eng tez tiklanadi, va agar Q_t 1 ga yaqinlashsa, o’sish yana sekinlashadi.

$-\gamma Tour_t Q_t$ –tashrif buyuruchilar ta’siri natijasida yuzaga keladigan ekologik pasayish (zarar). Bu yerda γ – har bir tashrif buyuruchi birligi keltiradigan o‘rtacha zarar koeffitsiyenti.

Yuqoridagi ifodalarda r – tabiiy tiklanish tezligi, γ – har bir tashrif buyuruvochi tomonidan yetkaziladigan o‘rtacha zarar, $Tour_t$ – tashrif buyuruchilar soni yoki yuklamani anglatadi.

Agar tashrif buyuruchilar oqimi doimiy bo‘lsa, tizim barqaror holatga keladi:

$$Q^* = 1 - \frac{\gamma Tour}{r}$$

Bu ifoda shuni bildiradiki, tashrif buyuruchi soni ortishi bilan ekologik sifat kamayadi. Shuningdek, $Q^* > 0$ bo‘lishi uchun $\gamma Tour < r$ sharti bajarilishi kerak, ya’ni sig‘im chegarasi $Tour_{max} = \frac{r}{\gamma}$ ga teng. Bu qiymat tashrif buyuruchilar sonining maksimal barqaror darajasini beradi. Agar ekologik sifatning minimal darajasi Q_{min} oldindan belgilangan bo‘lsa, ruxsat etiladigan tashrif buyuruchilar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$Tour_{max} = \frac{r(1 - Q_{min})}{\gamma}$$

Ushbu formulalar LAC va VERP tizimlaridagi ko’rsatkich–standart konsepsiyasiga matematik asos bo‘lib xizmat qiladi.

---

[230] Ajuhari, Z.; Aziz, A.; Yaakob, S.S.N.; Abu Bakar, S.; Mariapan, M. Systematic Literature Review on Methods of Assessing Carrying Capacity in Recreation and Tourism Destinations. *Sustainability* **2023**, *15*, 3474. https://doi.org/10.3390/su15043474

Ko‘p ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, ushbu model idealizatsiyalashgan hisoblanadi. Tabiiy sharoitlarda γ va r doimiy emas, ular fasl, joy, tashrif buyuruvchilar turi va boshqaruv choralariga qarab o‘zgaradi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlar ushbu modelni empirik ko’rsatkichlar tizimi bilan birlashtirishni tavsiya qiladi. Masalan, $r-$tabiiy tiklanish tezligi, uni restavratsiya ishlari, o‘simlik ekish yoki eroziya kamaytirish orqali oshirish mumkin; γ $-$ **tashrif buyuruvchilarning ekologik zarar koeffitsiyenti,** uni yo‘laklarni mustahkamlash, sayyohlarni ekologik ong bilan ta’minlash va chiqindilarni boshqarish orqali kamaytirish mumkin.

